

**“KELINLIK UYIDAN -OTA UYIGACHA”  
(YO'L UZOQ EMAS AMMA OG'RIQLI). OTA UYIGA QAYTGAN  
QIZNING ALAMLI HOTIRALARI.**

**Ismoilova Muhayyo Avazbekovna**

*Farg'ona Davlat Universiteti Fillologiya va tillarni o'qitish ingliz tili  
bakalavr talabasi.*

**Annotatsiya.** *Kelinlik uyidan - Ota uyigacha" mavzusida jamiyatimizda dolzarb bo'lgan, ammo ko'pincha yopiq eshiklar, ochilmagan sahifalar ortida yashirinib qolayotgan oilaviy muammolarga e'tibor qaratadi. Maqolada Kelin va Ayollarning oilaviy zo'ravonlik, ruhiy tazyiq, kamsitilish, huquqiy tengsizlik, kabi muhim muammolar yozilgan. Ayniqsa, er va qaynona -qaynота tomonidan doimiy bosim ostida yashaydigan huquqlarni qurbon qiladigan ayollar taqdiri ochib beriladi. Ko'plab kelinlar o'z huquqlarini yo'qotib, "Abyuzer"(zo'ravon)erlar tomonidan boshqariladigan muhitda yashashga majbur bo'ladi. Bunday holatda kelinlar uchun "Ota uyi" nafaqat jismoniy, balki ruhiy panoh sifatida qayta qadirlanadi. Mazkur mavzu oila ichidagi gender tenglik, ayollar huquqlarini himoya qilinishi, va jamiyatda sog'lom oila munosabatlarini shakillantirish zarurligini targ'ib qiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Ota uyi, abyuzer er, qaynona fitnasi, ruhiy zo'ravonlik qurboni bo'lgan ayol qismati, qarovsiz qoldirilgan oila, depressiya va onkologik kasalik sabablari.*

**Reja;**

Krish: Ayol sabr qilish uchun yaratilganmi yoki Baxtli bo'lish uchunmi.

Asosiy qisim:

1. Oilada zo'ravonlikka uchragan kelin: Og'riqli haqiqat va jamiyat oldidagi ma'suliyat.

2. Ayolni Ota onasidan ajratadigan Abyuzer Er: Zo'ravonlikning ko'rinmas - ko'rinishi.

3. Zolim qaynonaning Fitnasi: Oila Barakasi yo'qolishining sababi.

4. Onasining gapiga kirib, oilasini qarovsiz qoldirgan er : Insoniylik qarzi va Or-Nomus masalasi.

5. Erimga yaxshilik qilmay Onasining gapini -dami o'tkirlik qildi. Oilaviy zulmga qarshi kurashish Jamiyat-burchi.

6. Xulosa.

"Qizlik uyim ostonasi tillo ekan,  
Har o'tkan kunlarim yallo ekan

Ba'zan inson eng yaqin insoni tomonidan eng og'ir  
Zarbani oladi. Ayniqsa, bu zarba oila ichida bo'lsa-yurakni yorar darajada bo'ladi. Sevgi ko'rinishidagi alamli azob hotirasi. "Ayol sabrga yaratilganmi? Yoki baxtli bo'lishgami?".

-Qisqa ammo o'ylantiradigan savol, ayol bu-millat tayanchi, oila-ko'prigi, uning ertasi barakasi hamda kelajagi demakdir. Har bir qiz Ota uyida mehr muhabbat bilan tarbiya qilinadi, erkinlik asnosida ulga'aytiriladi, kamol topadi. Har tomonlama ta'lim tarbiya qilinadi toki milliy urf odatlar bilan o'z uyi deb nomlanmish "kelinlik uyiga", ya'ni Kuyovga topshirilgunicha. Shundan keyin esa "Ayolning haqiqiy hayot yo'li boshlanadi. AYOL hayotida ikki muhim mazili bor: Ota uyi hamda Kelinlik uyi. Ota uyida mehr topadi, kelinlik uyida mehr berishga urinadi. Ammo bu ikki uy orasida yuradigan ayol qalbida ko'pincha turli javobsiz savollar, hasratlar g'am anduxlar ma'suliyat hamda ichga yutilgan sukunat izlari yashiringan bo'ladi.

"Kelinlik uyidan- Ota uyigacha "degan ibora ham aynan mana shu ko'rinmas ammo og'ir istirobli yo'lning ifodasi demakdir. Ko'p ayollar erga tegishgach endi sen "Bizning uydasan", "O'linging ham tiriging ham shu uydan chiqadi", degan gaplarni eshitishadi. Go'yoki ota uyi ortda qolgan, kelajak esa faqat ya'gi uyda oila bilan bog'liq. To'g'ri

-ayol boshqa ya'ngi oila a'zosi bo'ladi. lekin bu-uning o'tmishi, bolalik yillari, paydo bo'lgan ildizi, ota onasi bilan bog'liqlikni butunlay uzish degani emasku. Axir Ota uyi ayol uchun qadirli, hayotidagi ilk saboq maktabi, ilk qadamlari, pok orzu niyatlari kindik qoni to'kilgan muqaddas joyku. Eng muhimi mavjudlikni tiriklikni his qilgan qo'rg'oni ham demakdir.

Biroq hozirgi kunda jamiyatda Ayolini "Ota -Onasidan ajratadigan Abyuzer Er"lar ko'payib bormoqda. Bu esa zo'ravonlikning ko'rinmas -aksi. "Abyuzer" - bu faqat kuch ishlatadigan bilan emas, taqiq bilan, ruhiy bosim orqali ham azob beradigan odamdir. Axir aytishadiku "Tig' yarasi bitadi, til yarasi bitmaydi "deb. Tig' bilan berilgan og'riq tanadan vaqtlar o'tkani sari bilinmasligi mumkin lekin til bilan berilgan ozor ruhni har yodga olingan payit qayta va qayta azoblaydi. Ko'pgina odamlar erkak urmasa unda u zo'ravon emas deb o'ylashadi. Lekin ruhiy zarba ruhiy zulm zo'ravonlikning eng havfli ko'rinishi hisoblanadi. Ayniqsa urning ayolini ota onasidan ayirishi yaqinlari bilan muloqotini cheklashi, opa singil, aka ukalaridan yiroqlatishi eng jirkanch ruhiy bosim turlaridan biridir.

Bunday erlar ko'pincha " Men senga yetaman","uyingdagilar seni buzadi","uyinga bormaysan" degan salbiy qarashlar asosida hotininig yaqinlarini yomonlaydi. Ularni ko'rishga,gaplashishga,hatto telefon qilishga ham ruhsat berishmaydi ,uyidan chiqarishmaydi, qo'shnilar bilan suhbat ham taqiqlangan. Ayolini to'rt devor ichida saqlaydi. Vaqtlar o'tkani sari ayol ko'zida qo'rquv, hissiy buzilishlar,yolg'izlik vasvasasi,aybdorlik hissi butun vujudini cho'lg'ab oladi, ayol o'zini kemirishni boshlaydi "nima uchun?, nima sababdan?degan savollar ich ichini yeb bitiradi.Bu hoholat ayol ichki "menini"yo'qotadi, ayollik energiyasini unitadi o'ziga bo'lgan ishonchini pasayishiga olib keladi. Gapirishga izin yo'q, fikr bildirishga haqqi yo'q,faqat eri va uning oilasini buyruqlariga so'zsiz bo'ysunadigan qo'rquvda yashaydigan insonga aylanadi.Ruhiyatini o'ldiradi.Qo'shtirnoq ichidagi erlar esa buni (sevgi, rashq,qayg'urish, himoya qilish)kabi so'zlar bilan niqoblar aslida zulm qilayotganini sezishmaydi ham Ayolga o'qishiga imkon berish , rivojlanishiga sharoit yaratib berish, uni har sohada qo'llab quvvatlash dayuslikku ammo uni barcha bilan muloqotini cheklashlik unga qilingan yaxshilik deb o'ylashadi. Axir ayol o'qisa butun millat o'qishidan habari yo'qdek go'yo.

Kelin ya'ngi uyga ezgu niyatlar, or nomusi qadr qmmatini ota onasining sh'anini ko'tarib keladi, shu uyda palak yozib baxtli bo'lish uchun .Kelin qul emas uning ham umidlari bor ya'ngi oilasidan kutadigan iliq munosabatlar, erining sadoqati, yaqinlaring mehr muhabbatini kutadi. Ayni paytlarda kelinni qiz o'rnida emas tekin hizmatkor sifatida qabul qiladigan zolim qaynonalar ham bor. Qaynonalar yosh Qaynalil kelinlik maqomiga ertaroq erishganliklaridanmi yoki o'zlari hali bunday maqomni ma'suliyatlarini to'laqonli his etmaganlillari boismi kelinlarga ko'plab ozorlarni beryapdi.ular nafaqat erlari tomonidan balki qaynonalari tomonidan ham nohaqliklarga, kamsitilishliklarga qo'pol munosabatlarga

chidashga majbur bo'lib qolyapdi.Oilada zo'ravonlikka uchragan kelin o'g'riqli hayotiy haqiqat va jamiyat oldidagi yechilishi kerak bo'lgan muhim vazifa.Kelin oilaga kelgandan so'ng ko'p hollarda begona muhitga moslashishga, yangicha hayot tarziga o'rganishga harakat qiladi.Lekin ayrim hollarda bu moslashish jarayoni unga nisbatan bosim, tahdid,hatto jismoniy va ruhiy zo'ravonlik orqali kechadi.Kelinlik uyi emas sinov uyi bo'lib qoladi,kelin qaynonasining keskin muomalasidan, erining bepisandligidan kamsitiluvchi so'zlaridan aziyat qurbonlari bo'lishadi.Axir zo'ravonlik faqat musht ko'rinishida emas balki doimiy do'q po'pisa, iqtisodiy va ijtimoiy erkinliklardan mosuvo bo'lishlik,o'z haq huquqlaridan mahrum bo'lishlik kabilar ham zo'ravonlik

belgilaridan biri sanaladi. Ayollar o'zlarini bunday his qilishlari natijasida depressiya, ruhiy tushkunlik, turli onkologik kasalliklarga olib kelyapdi. Bu holatda ayolning zo'ravonliklardan qutilish imkoniyatlarini izlashi osson emas albatta. Chunki, bir tomonda ota onasi shani, o'z or nomusi, kelinlik ma'suliyati, "Odamlar nima deydi", "Ular qanday tushunishadi"- degan fikriy qo'rquvlar insonga ortga chekinib zulmga qarshi sabr qilish kerakligini miyasiga quyib qo'yadi. Bu esa adolatsizliklarni yanada kuchayib davvom etishligiga yo'l ochib beradi.

"Zolim Qaynona Fitnasi": Oila barakasi yo'qolishining sababi. Qaynona kelinga ikkinchi ona bilmaganlarini o'rgatuvchi ustoz hamdir, bazi bir oilalarda qaynona kelinga raqib sifatida ko'z o'ngimizda gavdalanib qolyapdi. Fitna va adolatsizlikka asoslangan munosabatlar orqasida zolim qaynonaning roli katta. Shuni tushunish lozimki, kelinga nisbatan adolatsiz munosabat, ayblov, erhotin o'rtasiga rahna solish hattoki kelinnini o'z bolasi bilan orasini buzishlikkacha qo'l uryapdi. Bunday hollarda kelinni sabr bardoshi, salomatligi xavf ostida qoladi. Shunday qilsada yana "kelinim mehrsiz", "kelinim yomon", "ish qilmaydi", "o'g'limni o'ziniki qilib olgan" degan ayblovlar qo'yishadi. Doimiy kelinidan norozichilik, uning ustidan ta'na dashnomlar ketiraverishlik nafaqat kelinini balki o'g'lini ham ruhiy holatini o'zgartiradi fikrini buzadi ayoliga nisbata nafrat tuyg'usini oshiradi. Ikki o't orasida sarson bo'lishiga sabab bo'lib oilaviy hotirjamligini buzadi. Oilada mehr muhabbbat, hurmat ishonch kabi tuyg'ularni yo'qotadi. Uning o'rniga urush janjal adovatni keltirib chiqaradi. Zolim qaynonaning bunday fitnasi ko'p hollarda o'zining kelinlik davridagi og'riqlari natijasidir, shuning uchun kelinim ham men ko'rgan kunlarni ko'rishi kerak deb o'ylab o'zi bilmagan hollarda keliniga zulm qiladi. Oilada tinchlik yo'qolgani sari o'g'lining ayoliga bo'lgan hurmati yo'qoladi. Darhaqiqat, Ota Ona muqaddas- ularni asrab avaylash kerak ammo, o'z qo'li bilan barpo qilgan oilasini ham qadirlashi lozim.

"Onasining gapiga kirib oilasini buzgan er": Ma'suliyatsizlikning achchiq aksi. Erkak kishi oilaning tayanchi sifatida har ikkala tomonni ota onasini ayolini asrashi lozim. Ota Onam deb bir tomonni yonida bo'lib nigok deb atalmish muqaddas rishtaga nisbatan ma'suliyatsizlik hiyonat qiladigan erkaklar ham ko'payib bormoqda. Buning natijasida eng ko'p aziyat chekayotgan inson- Ayoldir. Ertining tushunarsiz hatti harakatlari, o'z fikr mulohazasiga ega bo'lmaganligi sababli ayollar jabr ko'rishmoqda. erkaklar esa buni kech bo'lganda his qilishadi afsuslanishadi, lekin o'shanda kech bo'lgan bo'ladi, oila ishonchi dars ketgan bo'ladi. Hattoki onasini ko'rsatmasi bilan o'z farzandini

qarovsiz qoldirayotgan kerkaklar jamiyat kushandalari sifatida ko'z o'ngimizda aks etyapdi. Onaning " Hotinging bizni oilaga to'g'ri kelmaydi", "Onasi o'pmagan qizga uylantiraman"-degan so'zlari ayrim o'z fikriga ega bo'lmagan erkaklarni o'z oilasidan voz kechishligiga sababchi bo'lyapdi.Axir birovni o'n sakkiz yil, yigirma yil ko'z qorachig'iday asrab avaylab katta qilgan qizi Hitoyni uhachiskasimi,yoki zubachiskasimi?.Bir martta ishlatib tashlab ketadigan, shu hotin seniki onangniki emas, unga sen uylangansan onang emas degim keladi .

Hulosa o'rnida shuni aytgan bo'lardimki- Erkak degani faqat kuchda emas, u donolik, muvozanat ustini hamdir ,oila rahmat qo'rg'oni hamdir. Ayolga eri g'amxorlik qilmasa, eri qadirlamas qaynonasi yoki oila a'zolari kamsitaveradi.Erkak adolatli bo'lmasa qolganlar ayoliga adolatsizlik qilishi mumkun.Ayol ota onasida yaqinlaridan uzoqlashib bitta eri uchun kelar ekan, bir ayolning eri oldidagi eng katta qurbonligi shu emasmi. Erkak esa bitta ayolidan mehrini etiborini qizg'onishi adolatlimi.Unga Otasi kabi suyanishiga imkon, Onasi kabi ishonishiga sababchi bo'lishi ham kerakku , qachongacha ayolllar kelinlik uylarida mehr kutib yashaydi.Ayolni Ota onasidan ayirishlikka hech kimni haqqi yo'q.bunday harakat oila qurish emas- hukumronlikni batamom o'rnatishlikka urunadigan Sevgini niqob qilib olgan zo'ravonlikni yuzaga keltiradi.Qaynonalarga ham maslahat o'rnida shuni bayon etamanki kelinni qul deb emas qiz deb qabul qilish kerak shunda ular bor mehrini sizga hadya etadi.Yangi oilaga ko'nikishlikka eri ham qaynona qaynota ham ko'maklashishi lozim.Oilada sen ayol kishisan chidashing kerak,sabr qilishing kerak, sen yaxshi kelin bo'lishing , yaxshi ona bo'lishing, eng yaxshi hotin bo'lishing kerak yani sen o'zingni emas balki boshqalarning ehtiyojlarini qondirishing kerak deb emas .Aksincha sen ayol kishi bo'lganing uchun mehrga sevgiga hurmatga loyiqsan deb o'rgatish kerak. Sen "sen "bo'lishing kerak, ruhiy holating sog'lom bo'lishi kerak, o'qib o'rganishing kerak baxtli bo'lishing kerak deb o'stirish lozim Chunki aylo baxtli bo'la olsagina oila hotirjam saodatli bo'ladi.Ayol kulsagina oila gulllaydi ravnaq topadi Bejizga ayoli yig'lagan saroydan ko'ra, ayoli kunlgan kulba ming bora avvzalroqdir deb aytilmagan .chunki ayol oila ko'prigi,tayanchi, baxtli ayol daraxt bo'lib iltiz otib o'sadi,meva beradi, oila bog'ini barakali qiladi. Shuni ham yodda saqlash lozimki oilani ba'zan sukut bilan ba'zan haqiqatlarlarni aytish bilan saqlab qolish mumkin.Ammo eng muhimi-o'z fikriga ega bo'lishlik.Zero ko'r ko'rona ishonch-baxt emas bexabarlikdir.Asilda Kelin avvalo inson u ham banda hato qiladi, lekin unga zulim qilishlik emas saboq berishlik o'rgatishlik

kerak. Qaynonalari tomonidan "Tarbiyasiz", "Yaxshi kelin emas" degan tamg'aga chidashga majbur ham emas. Sababi

Kelinlik bu-yangi hayot, sinov emas

Kelinlik bu-mehnat lekin taziyoq emas

Kelinlik bu kelajak, tahqirlashlik emas

Kelinlik bu murosa ammo qullik emas

Bunday nozik farqni anglashligimiz kerak, unga hurmat, mehr, e'tibor, yaxshi muomala ko'rsatilsa butun oilani baxtli qila oladi. Zulm esa na oilani mustahkamlaydi nauni saqlab qola oladi. Zulmni taqdir sifatida qabul qilmaslik kerak. Bugun har bir qaynonaga, har bir qaytonaga, har bir erga har bir oila a'zolariga yuzlanib bitta savol bergim keladi: Siz ayolga mehr beryapsizmi yoki zulm?

Hulosa o'zingizdan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

Mazkur maqola yozilishida bevosita hech qanday adabiyotlardan foydalanilmagan, barcha fikrlar muallifga tegishli.